

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASH

NIYOZOV SODIQ RAXIMOVICH

O'zbekiston Respublikasi Harbiy havfsizlik va mudofaa universiteti
o'qituvchisi, dotsent

Vatanparvarlik - yolgiz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas.
Bu juda katta his... Bu - vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-
yomon kunlarida asqatish demakdir.

A. N. TOLSTOY

Annotatsiya: *Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining dolzarbligi, davlat siyosati markazida turganligi, bu borada olib borilayotgan islohotlarning muhim jihatlari hamda globallashuv jarayonida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullari yoritilgan.*

Kalit so'zi: *vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, davlat siyosati, yoshlar, islohot, harakatlar strategiyasi, yoshlar ittifoqi, harbiy-ma'muriy sektor.*

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta'limi, Madaniyat, Yoshlar siyosati va sport, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika «Nuroni» jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti, Harbiy-ma'muriy

sektorlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining asosiy sub'ektlari hisoblanadi.

Yoshlarda vatanparvarlikning shakllanishi bu uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligini bilishi, egallab olishidir. Vatanparvarlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar milliy taraqqiyoti, uning tarixi va madaniyati, san'at va adabiyoti, turmush tarzi, axoloqi, e'tiqodi, ijtimoiy ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan urfodatlar, marosimlari, an'analaridir. Katta ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlardan biri - bu jamoatchilik fikridir. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi birbiriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasini saqlash, rivojlantirish, keng foydalanish uchun zarur bo'lgan qadriyatdir.

Jamoatchilik fikrining kuchi yoshlarga juda erta singdiriladi va oiladagi, jamoatchilik ichidagi tarbiyaning muhim qismi bo'ladi. Jamoatchilik fikriga quloq solish, boshqalarni hurmat qilish, shaxsiy xudbinlik botg'og'iga botib qolmaslik bilan bog'liqdir. O'zbek milliy qadriyatlari umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langandir. Ular o'rtasidagi muntazam davom etib boradigan dialektik munosabat-alloqadorlik jahon sivilizatsiyasi rivojining muhim omillaridan biridir.

Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi va boshqa qonunlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining (keyingi o'rinlarda — Qurolli Kuchlar) umumharbiy nizomlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladiyu

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

➤ ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradigan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari;

➤ ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy printsiplari hisoblanadi:

ilmiylik; tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik; muntazamlilik;

faollik; ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, 2017 yil 5 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi PF-5106-sonli Farmonida yangi tashkil etilgan

O'zbekiston yoshlar ittifoqi mamlakat yoshlarining barcha toifa va guruhlarini qamrab olishi, ularni demokratik printsiplar asosida birlashtirishi, uning huquqiy maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni va nufuzini, obro'-e'tiborini oshirish hamda tegishli imtiyozlarga alohida e'tibor qaratildi.

Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlash maqsadida yuqorida Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan harbiy ta'lim-tarbiya beradigan joylarda "Temurbeklar maktabi" tashkil etildi, turli soha va tarmoqlarda yuqori natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun "Mard o'g'lon" nomli Davlat mukofoti va yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, o'qishda, mehnatda, jamoat ishlarida har tomonlama faol bo'lgan yigit-qizlarni taqdirlash maqsadida "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi.

Mamlakatimizning barcha viloyatlarida Prezidentimiz tashabbusi bilan harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Bunda joylardagi Mudofaa ishlari bo'limlari ijroiya hokimiyati vakillari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda amaliy ishlar olib bormoqda. Hozirgi globallashuv jarayoni yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023yil 29iyunda qabul qilingan "2023-2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlikruhidatarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish kontseptsiyasi" 267-sondi Qarori muhimahamiatga ega bo'lmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashgadoirishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlatvanodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarifaolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularinisingdirish «Vatan - ulug', burch - muqaddas!» kontseptual g'oya ostida tashkil etilib, undayoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg'ularini shakllantirish axloqiy ehtiyojga

aylandi. Bugungi kunda bu davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma'naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. U mehr-oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg'urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas bo'lagidir. Harbiy vatanparvarlik g'oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 104 б.
2. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида» 2022 йил 4 апрелдаги 153-сон қарорига илованинг **480-банди**.
3. Вазирлар Маҳкамасининг «Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2018 йил 23 февралдаги 140-сон **қарори**.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция” Ватанпарвар газетасининг № 9 (2760) – сони, 2018 йил 2 март.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 23 февраль куни тасдиқланган 140-сон қарори “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси”.
6. Маматов О. Ватанпарварлик - миллий истиқлол мафкурасининг муҳим таркибий қисми. Тошкент-2001й.